

MAKTAB MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Mamatov Jasur Asatullayevich.

JDPI, Matematika o'qitish metodikasi

kafedrasi o'qituvchisi

Bosimova Dilnavoz Furqat qizi

JDPI Matematika o'qitish metodikasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab matematika darslarida noan'anaviy metodlardan foydalanish va bir qancha interfaol metodlar xususida so'z boradi.

Annotation: This article discusses the use of non-traditional methods in school mathematics lessons and a number of interactive methods.

Аннотация: В статье рассматривается использование нетрадиционных методов на уроках математики в школе и ряд интерактивных методов.

Kalit so'zlar : interfaol metodlar, insert strategiyasi, "Zinama-zina" metodi, "Qora quti" metodi.

Keywords: interactive methods, insert strategy, "Step by step" method, "Black box" method.

Ключевые слова: интерактивные методы, стратегия вставки, метод «Пошаговый», метод «черного ящика».

Hozirgi kunda yurtimizda bo'layotgan islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor, mazkur sohada qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, ishlab chiqilayotgan yangidan yangi g'oyalar, "Milliy dastur"imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar bugungi kun pedagoglaridan yanada ko'proq kuch-g'ayrat, shijoatni talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim berish jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodkorlik bilan yondashishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda

muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to‘laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o‘zida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarish, shu bilan birga jahon ta’limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Matematika darslarida bir xillikdan qochish ya’ni darslarning noan’anaviy shakllarda tashkil etilishi, ta’lim jarayonini mukammal andozalar asosida loyihalash, bu loyihalardan unumli foydalana olish o‘quvchilar tomonidan o‘tilgan darslarning puxta, chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishining kafolati bo‘la oladi. Zamonaviy ta’limga qo‘yilayotgan asosiy muhim talablardan biri ham ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida ulkan natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- talabalar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- talabalarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Maktabdagi darslar maktab o'quvchilari hayotining muhim qismi bo'lib, ular oddiy qulaylik va qulay muloqotni talab qiladi. Shunday ekan o'quv jarayonining samaradorligi nafaqat o'quvchilarning qobiliyatiga, balki o'qituvchining tirishqoqligi, mehnatsevarligi, darsga tayyorgarligi va shu bilan birga o'qituvchining maqsadli motivatsiyasining mavjudligiga bog'liq.

Darsning monotonligi, xuddi shu tartibda bir necha yillar davomida takrorlanganda, ya'ni, uyga vazifani tekshirish, o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilish, yangi mavzuni tushuntirish, mavzuni mustahkamlash, va yana uyga vazifa berish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini asta-sekin so'ndirib boradi, bora-bora e'tibor yo'qoladi. Buning oldini olish uchun o'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olib, ularga maqbul shart-sharoitlar yaratish zarur. Darsda gapirmaydigan o'quvchilar o'tilayotgan mavzuni boshqa tengdoshlariga nisbatan yomonroq o'rganadilar natijada o'zlariga nisbatan ishonchsizlik vujudga keladi. Bunday holatlarda mahoratli o'qituvchi ular bilan ishlashni bilishi, aynan shunday o'quvchilarni muloqotga chorlay olishi kerak. Muloqot jarayonida shaxs rivojlanadi axloqiy qadriyatlar bilan boyitiladi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining samarali amalga oshirishiga yordam beradi.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan joylanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Interaktiv-interfaol so'zi inglizcha ya'ni "inter"-aro, o'zaro, "akt"-harakat ma'nosini anglatadi. Interfaol usullar-bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir.

Bunday usullarning barchasida ham o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi hamkorlik, o`quvchining ta`lim jarayonidagi faol harakati ko`zda tutiladi.

Interfaol usullardagi darslar o`quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o`zaro faollikda hal etishga, o`z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjihatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an`anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta`lim mazmunini o`zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Maktab matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir qanchasining mohiyati va ularni darslarda amaliy qo`llash bosqichlarini ko`rib chiqamiz.

“QORA QUTI” METODI

Ta`lim jarayonida mazkur metodni qo`llashdan maqsad o`quvchilar tomonidan mavzuni puxta o`zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma`lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o`quvchilar juftlikka biriktiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so`zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . .)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o`qituvchi o`quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to`g`ri bajargan guruhning bir a`zosi o`qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf o`quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so`zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . qanday ma`noni anglatishini aytadilar);
- to`g`ri javob bergan o`quvchi o`qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o`qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

“INSERT” strategiyasi

Strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhlar o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so‘raladi;
- o‘quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilr;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlariga tarqatadi;
- guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
- guruh a‘zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
- guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Strategiyani qo‘llashda o‘quvchilar quyidagi sxemalar bo‘yicha faoliyatini tashkil etadilar:

1. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma‘nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa

?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'lsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)
---	------------------------------------------------------------------------------------

“Zinama-zina” metodi

“Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhlarga bo'lingan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'ygan vazifasiga qarab belgilanadi. Ahamiyatli jihati, sinfdagi har bir o'quvchining bilimini individual baholashda “Zinama-zina” usuli qo'l keladi. Qolaversa, vaqtni tejashga yordam beradi. Quyida ikki o'quvchini bir vaqtda baholashga misol keltirilgan.

1. Matematika fanining biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.

2. Doscaga ikki tomondan bir xil chiqib boriladigan pog'onasimon chizma chiziladi, har bir pog'onaga savollar yoziladi.

3. Har ikki tomondagi pog'onalar soni teng bo'lishi kerak.

4. Ikki o'quvchi doscaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtda bajarishga kirishadi.

5. Har ikki o'quvchiga berilgan topshiriqlar o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin hamda o'xshash bo'lishi kerak.

6. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.

7. Baholash tartibi pog'onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalga oshiriladi.

Pog'onalar 9 ta bo'lsa: 8-9 ta to'g'ri javobga “a'lo”, 6-7 ta to'g'ri javobga “yaxshi”, 5 ta to'g'ri javobga “qoniqarli” baho qo'yiladi.

Noan'anaviy darslar har doim bayram darslari bo'lib, hamma o'quvchilar faol ishtirok etadi, hamma o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, sinf ijodiy jamoaga aylanadi. Ammo o'quv jarayonini tashkil etishning noan'anaviy shakllariga

tez-tez murojaat qilish maqsadga muvofiq emas, chunki bu fanga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. An'anaviy bo'lmagan dars oldidan puxta tayyorgarlik, aniq o'quv maqsadlar tizimini ishlab chiqish kerak.

Yangi mingyillikda, biz ketayotgan "sanoat davridan" farqli o'laroq, "axborot davri" deb ataladigan davrga kirdik. Bu shuni anglatadiki, axborot eng muhim mahsulotga aylanadi. Ma'lumot almashishda kompyuterlar juda yordam beradi. Ular o'qituvchiga o'quvchining materialni o'zlashtirish darajasini, tayyorgarlik darajasiga qarab har bir aniq o'quvchi uchun uni taqdim etish tezligini nazorat qilish imkonini beradi. Darsda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish har bir darsni noan'anaviy, yorqin, boy qilish imkonini beradi.

Olingan saboqlar va hamkasblar tajribasini o'rganish asosida bir qator xulosalar chiqarish mumkin:

- noan'anaviy darslar kognitivlikni oshiradi;
- bilim sifati yaxshilaydi;
- Aqliy bilish jarayonlari rivojlanadi.

Ko'pchilik o'qituvchilar ozlarining pedagogik amaliyoti davomida an'anaviy bo'lmagan dars turlaridan foydalanadilar va ularni o'qitishni tashkil etishning zarur shakli deb hisoblaydilar.

Ammo, shuni hisobga olish kerakki, bunday shakllarga tez -tez murojaat qilish o'rinli emas, chunki noan'anaviylik tezda an'anaviy bo'lib qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- Ochilova M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf. 2000
- Tolipov O'. Usmonboyeva M . Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot . Toshkent "Fan" 2005
- Chugunova A.A. "Нетрадиционные методы преподавания математики"
- Федорченко С. А. "Нетрадиционные формы проведения уроков математики"